



ANUSHTEGIN XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARDA ELCHILIK MASALALARI

Tog'aymurodova Zulayxo Faliddin qizi

AIFU Ijtimoiy fanlar kafedrasи

Tarix yo'nalishi 2-kurs magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlati davrida elchilarning siyosiy hayotdagi o'rni, ularning shaxsiy fazilatlari hamda diplomatik vazifalari yoritiladi. Tarixiy manbalar asosida elchilar davlatlararo munosabatlarda vositachi, siyosiy ta'sir vositasi va ma'naviy elchi sifatida muhim rol o'yaganani aniqlanadi. Shuningdek, elchilarga ko'rsatilgan ehtirom, ular uchun tashkil etilgan tantanali marosimlar va hurmat-munosabatlar orqali bu davr diplomatiyasining murakkabligi va yuksak madaniy darajasi namoyon bo'ladi.

Kalit so'z: Elchi, diplomatiya, aloqa, maktub.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль послов в политической жизни государства Хорезмшахов, а также их личные качества и дипломатические обязанности. На основе исторических источников выявляется, что послы играли важную роль как посредники в международных отношениях, политические инструменты влияния и духовные представители. Особое внимание уделено почестям, оказываемым послам, торжественным церемониям и уважительному отношению к ним, что демонстрирует высокий уровень дипломатии и культуры того времени.

Ключевые слова: посол, дипломатия, коммуникация, письмо.

Annotation: This article explores the role of ambassadors in the political life of the Khwarazmian state, along with their personal qualities and diplomatic responsibilities. Based on historical sources, it is revealed that ambassadors served not only as intermediaries in international relations but also as instruments of political influence and spiritual representatives. Special attention is given to the honors bestowed upon them, ceremonial receptions, and the respectful treatment they



received, all of which reflect the high level of diplomacy and cultural sophistication of the period.

Keywords: Ambassador, diplomacy, communication, letter.

KIRISH.

Davlatlarning siyosiy munosabatlarida eng muhim jihatlaridan biri bu elchilik vazifalaridir. Turkchada xalq, davlat, o‘lka tushunchasida kelgan “el” so‘zi asosida “elchi” kalimasi xabarchi, xabar keltirib ko‘rsatgan kishiga berilgan unvondir. Turk davlatlarida eskidan buyon hukmdorlarning rasmiy xabarchilari elchilaridir¹. Keng ma’noda elchi bir davlatda vakil sifatida boshqa bir davlat tarafidan tayinlangan diplomatdir². Ma’lumki elchilarning Turkiya davlat tizimida alohida o‘rni bor va ular muayyan xususiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Turk tarixida eng muhim asarlardan biri bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” asarida elchilarda bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlar batafsil bayon etilgan. Avvalo, elchi tanlashda juda sezgir bo‘lish kerak. Tanlangan kishi bilimli, zukko, obro‘li, mard va hammadan ustun bolishi kerak. Chunki elchilar orqali har xil ishlar amalga oshirilib u orqali natijaga erishilar edi. Elchi yetqazishi kerak bo‘lgan masalani juda yaxshi bilishi kerak va bundan tashqari yaxshi niyatli odam bo‘lishi kerak bo‘lgan. Ochko‘z shaxslar elchilikka mos kelmas edi. Elchi bilimdon inson bo‘lishi va harbiy malakaga ham ega bo‘lishi kerak edi. U aqlii, hushyor, bilimli, ishonchli va qiyinchiliklarga chidamli bo‘lishi, shuningdek boshqa tillarda gapirish va yozish qobilyatiga ega bo‘lishi kerak edi. Ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan elchi tufayli humkdorlarning obro‘si boshqa davlatlar nazdida oshardi, aksi bo‘lsa hurmati pasayib ketardi.

Agarda podsholar o‘rtasida ziddiyat yo dushmanlik vujudga kelsa va shu sharoitda elchilar kelib, farmon bo‘yicha ish yuritsalar, hech qachon ular xafa bo‘lmaydilar va yaxshilikni ulardan darig‘ tutmaydilar³.

¹ Mecdud Mansuroğlu, “Elci”, IA, IV, 231

² Mehmet Ipsirli, “Elci”, DIA, XI, 3

³ Nizomulmulk. Siyosatnama. – Toshkent., “Trust and Support” 2023. B 116.



Yana “Siyosatnoma” asarida ham elchilarda bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlar ko‘rsatilgan. Unda yozilishicha elchilar ko‘p sayohatlar qilgan bo‘lishi, turli ilmlardan xabardorligi, xotirasi yaxshi va uzoqni ko‘ra bilishi, shuningdek baland bo‘yli bo‘lishi maqlul edi⁴. Botir, jasur, qurol-yarog‘ tutgan, ot minadigan jangchini elchi qilib yuborish ham o‘rinli bo‘lardi. Shuningdek elchining Sayyid va Sharif kabi diniy nasabga ega bo‘lgan kishi bo‘lishi muhim edi. Chunki bunday odamlarga ko‘proq e’tibor qaratilar va yomon munosabatda bo‘lmaydilar. Shu bilan birga elchilarda bo‘lmasligi kerak bo‘lgan xislatlar sirasiga vinoga ishqibozlik, qimorbozlik suhbatdosh hazilkashlik va noma’lim shaxs bo‘lish ham bor edi⁵.

Xorazmshohlar davlati tarixiga oid ma’lumotlarni beruvchi manbalarda bu boradagi tarixiy misollar hamda bu davrda elchi etib saylangan kishilarning xususiyatlari haqida turli ma’lumotlar keltirilgan. Avvalo elchi ishonchli bo‘lishi juda muhim. U obro‘li inson bo‘lishi, ma’lumoti yuqori bo‘lishi, elchilarni ham shu kishilar orasidan saylashi kerak edi. Xorazmshohlar va gurjular O‘rtasidagi yozishmalarda g‘uriylarga yuborilgan xatlardan elchilarning xususiyatlari haqida ma’lumotlar paydo bo‘ladi. “At-tavassul”ga kiritilgan va 576-yil zul-hijja oyining oxirida (1181-yil may) Xorazmshohlardan G‘uriylarga yuborilgan maktubda G‘uriylar davlatidan elchi bo‘lgan amir Humomiddinning xususiyatlari qayd etilgan. Bu odam mard, jasur, xushmuomala va ko‘p yaxshi fazilatlarga ega edi. Humomiddin o‘z xabarini aqlli va yaxshi til bilan yetkazadi⁶.

Elchilar o‘sha davrning mashhur olimlari hamda davlat amaldorlari orasidan saylangan. Xorazmshohlar vaqtি-vaqtি bilan o‘sha davrning mashhur olimlarini elchi qilib saylaganlar. Shulardan biri Alovuddin Muhammad davrida Abbosiy xalifasi an-Nosir-Lindillahga; Jaloliddin Xorazmshoh davrida Turkiya Saljuqiyłari hukmdori Alouddin Kaykubodga yuborilgan **Kadi’l-kudat**⁷ ya’ni qozilar qozisi Mujariddin Tahir Umar al-Xorazmiy edi. Ibn Bibiy, Mujariddin Umar al-Xorazmiyning

⁴ Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent., “Trust and Support” 2023. B 116

⁵ Gulserin AZAR NASIRABADI. HARAZEMSAHLAR DÖNEMİNDE DİPLOMASI VE ELÇİLİK FAALİYETLERİ. - Baskı Eylül. 2021 -s. 189

⁶ Gulserin AZAR NASIRABADI. HARAZEMSAHLAR DÖNEMİNDE DİPLOMASI VE ELÇİLİK FAALİYETLERİ. - Baskı Eylül. 2021 -s. 191.

⁷ O‘sha davrda Qozikalon. Eng oliv qozi degan ma’noda.



xususiytalarini sanab o‘tar ekan, uning Xorazmning yetuk imomlaridan biri, ko‘zga ko‘ringan allomalardan, shuningdek ilm ahlidan ham benazir shaxs ekanligini ta’kidlaydi. Mujriddin fiqh va boshqa fanlarda teran fikrlaydigan, falsafadan ham juda bilimdon kishi edi. U shunday buyuk shaxs ediki Iroqda, Xurosonda Ozarbayjonda hech kim u bilan bellasha olmasdi. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi 622 (1225) yili Alouddin Kaykubodga yo‘llagan maktubida Mujariddin Xorazmiy haqida shunday deydi: “Buyuk zot, mujtahid olim, sultanat ustuni, davlat, millat, xalq va dinning suyanchig‘i, islom va musulmonlarning sha’ni zamonining allomasi, o‘z davrining dahosi, Xorazm va Xuroson iftixori, noiblar podshosi, sulton va podsholarning qozisi, buyuklar zanjirining boshi, sultanat zodagonlarining ulug‘i, davlat arboblarining kattasi Mujariddin Tohir ibn Umar al-Xorazmiydir” kabi jumlalarni ishlatgan.

Bu shaxsni yaqinlari va yordamchilari hamrohligida zarur asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta’milangan holda Sulton Alouddin huzuriga jo‘natgani va elchilarining tilidan foydalanib, ikki taraf o‘rtasida birlik va hamjihatilikni taminlash to‘g‘risida kelishildi. Shunday qilib ikki davlat o‘rtasida endi maktublar kelib ketar, elchilar va savdogarlarning kelib ketishi ko‘payadi. Sulton Jaloliddin elchisi Mujariddinning so‘zleri inobatga olinishi va o‘zi so‘zi sifatida qabul qilinishini istardi⁸.

Sulton Alouddin Kaykubod ham Jaloliddinga yozgan maktubida Mujariddin al-Xorazmiy xususida “ Sizning tarafingizdan dunyoning buyuk vaziri, dinining va davlatining dastakchisi, Islomning va musulmonlarning qo‘riqchisi, podshohlarning va sultonlarning yordamchisi, davlatning iftixori, millatning nuri, xalifalik maqomining sevimlisi, dunyoda insonlarga rahbar, noiblarning rahbari, buyuklarning va avval kelganlarning afandisi, zamonining qozisi, Xorazm va Xuroson vazirlarining vaziri, toza qalbli kimsalarning rahbari Mujariddin bu yerga kelib sizning so‘zlaringizni, habarlaringizni yetkazdi. Uning keltirgan maktubini o‘qish, qalbimizda do‘stlik va samimiyat tuyg‘ularini to‘ldirdi. Bu yerda qolgan kunlarida

⁸ Gulserin AZAR NASIRABADI. HARAZEMSAHLAR DÖNEMİNDE DİPLOMASI VE ELÇİLİK FAALİYETLERİ. - Baskı Eylül. 2021 s.192



hikmatli so‘zlari bilan ko‘nglimizni fath etdi. O‘zining fazilatlari bilan sevinchimizni va mammuniyatimizni oshiridi”- kabi ifodalarni qo‘llagan⁹.

Jaloliddin Xorazmshoh, Xalifa Mustansir tomonidan yuborilgan elchi Sadeddinni kutb olib mehmon qilganidan so‘ng, uning qaytishida o‘zining elchisi Badriddin Tutukni u bilan birga xalifa huzuriga yubordi. Albatta Inonch xonning o‘g‘li Badriddin Tutukni elchi qilib yuborilish sababi, uning shaxsiy xususiyatlari edi. Chunki turklar orasida undan yaxshisi yo‘q edi. U ilimli va so‘z ustasi bo‘lishidan tashqari, forscha yozishda, she’r o‘qishda ham mohir edi. U o‘qish usullarini bilar edi yosh bo‘lishiga qaramasdan saroyning barcha marosimlarini va qonun qoidalarini yaxshi bilar edi¹⁰.

Yuqorida takidlanganidek elchilar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri bu-ishonchlilik edi. Bu boradagi misolni Xorazmshohlarning Mozandaron olimlariga yozgan maktubida keltirish mumkin. Bu yerda elchilarning ishonchliliqi ta’kidlanadi va bu xususiyatga ega bo‘lgan odam tomonidan keltirilgan xabarlar mammuniyat bilan qabul qilinadi.

Elchilarning vazifalari

Xorazmshohlar davriga oid ma’lumotlarga nazar solsak, elchilarning vazifalari haqida ham bir qancha ma’lumotlar bor. Kadi’l-kudat Mujariddin Tohir ibn Umar al-Xorazmiyning keltirgan maktubida elchining vazifalari aniq bayon etilgan. Avvalo u elchilar ishlatadigan tilni qo‘llashi zarurligi ta’kidlanadi. Ibn Bibiyning fikricha, bu til ikki taraf o‘rtasidagi do‘stlikka yo‘l ochar va ikki taraf o‘rtasidagi ajralishga barham berar edi. Shu tariqa u birlik va hamjihatlikni o‘rnatardi. Bundan buyon ikki tomon o‘rtasida elchilar kelib ketar, munosabatlar diplomatiya bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan ham rivojlanib, savdogarlar o‘z savdolarini amalga oshirar edi.

Jaloliddin Xorazmshoh davlatida munshiylik vazifasini bajargan Nasaviy ham elchi qilib tayinlandi. Nasaviy Iroqqa elchi qilib yuborilganda, Xorazmshohlardagi

⁹ Gulserin AZAR NASIRABADI. HARAZEMSAHLAR DÖNEMİNDE DİPLOMASI VE ELÇİLİK FAALİYETLERİ. - Baskı Eylül. 2021 s.192

¹⁰ Gulserin AZAR NASIRABADI. HARAZEMSAHLAR DÖNEMİNDE DİPLOMASI VE ELÇİLİK FAALİYETLERİ.-Baskı Eylül 2021 s.193



elchilarning vazifalari haqida ba’zi tafsilotlar mavjud. Ma’lumki, Ismoiliylar kelishilgan 30.000 dinor soliqda 20.000 dinor olib kelib, 10.000 dinor kam qolgan edi. Shu sababli Nasaviyning vazifalaridan biri Alamutga boorish edi. Ikkinci masala Jibol podshosi Imodaddin Pehlivon Hizorasp va Ayva shohi Shahobiddin Sulaymonshoh uni xalifaning vassal deb hisoblar, ilarga humronlik qilmas va ulardan yordam so‘ramas edi. Biroq, bu qaroridan afsusda edi. Iroq noibi Sharafiddin Ali bu ishni noto‘g‘ri deb hisobladi va sultonga : “Bular Sharaful Mulkning xohishi, chunki bu ikki kishisiz Iroq mamlakati foydasiz va u yerda hech kim hukmronlik qila olmaydi”, dedi. Biroq bu ikki amirning asl fikrlarini, sulton tarafga o‘tishga rozi bo‘lganliklarini o‘rganmasdan turib, ularga hech narsa yozilmasligi kerak edi. Sulton ular bilan ayni bir xil fikrda ekanliklarini bilish uchun, Isfahonga bir kishini yuborib, yozgan maktubida ularning ham ayni bir xil fikrda ekanliklarini bilishni va shundan keyin ular bilan qarorga kelishlarini aytdi. Shu maqsadda Sulton Nasaviyni Iroqqa elchi qilib yuboradi. Qarorga ko‘ra, u avval Isfahonga borib, Iroq noibi bilan uchrashib u yerdan bu ikki Malikka biror narsa yozadi. Agar itoat etsalar, ulardan va Yazd egasidan askar so‘rar edi. Keyin bu ikki qo‘sish bilan Iroq noibining nutqi uchun Qavzinga boradi. Ularni Qavzinda qoldirib, yolg‘iz Alamutga ketardi.

Nasaviyning ikkinchi vazifasi Alamutga borib, u yerda elchilik burchini bajarish edi. Uning Ismoiliylar boshlig‘I Alouddin huzuriga borganining sababi xutba o‘qib, pul so‘rash edi. Agar mol bermasa, Qavzindagi askarlari bilan Alamutga borib, bu yerni xarobaga aylantirib molni u yerdan olib ketardi. Nasaviy istamasdan yo‘lga chiqdi. Qavzinga kelgach Iroq noibi Sharafiddin Alining hojiblaridan biri unga Sharafiddindan maktub berdi. Bu maktubda safar davomida barcha qulayliklar bilan ta’minlanishi va hurmat ko‘rsatilishi yozilgan edi. Isfahonda bir konak masofadagi Sinega borganida bir hojib kelib “Sharafiddin uning odamlari kelguniga qadar bir kun bu yerda qolishing kerak, shi vaqt Ichida xalq bilan uchrashishing mumkin”, dedi. Biroq Nasaviy uning gapiga qulq solmay otiga mindi va 627-yil 28-ramazon (1230-yil 10-avgust)da Isfahonga kirdi. Bu yerda Cibal va Eyve amirlariga yuborgan odamlarining kelishini kutdi va bu so‘ngra bu kishilarda Sulton Jaloliddingga bo‘ysunishni istashlari haqida xabar keldi. Keyin ularning askarlari ham Isfahonga



yetib keldi. Bundan tashqari Yazd hokimi Mahmudshoh ham o‘z xohishi bilan kelib ularga qo‘sildi. Biroq Mahmudshox o‘zining xotini Kirmomonning hokimi Barak Hojibning qizidan maktub oldi. Maktubda xotini Mahmudshohning Yazdda yo‘qligi sabab o‘zining otasi Yazdga hujum qilmoqchiligi haqida yozilgan edi. Shundan so‘ng Mahmudshoh va Nasaviy, Mahmudshohning Yazdga qaytishini ma’qul topdilar. Hatto Mahmudshoh Nasaviyga o‘zining vaziri Sayfulmulk orqali 1000 dinor, otlar va matolar yubordi. Keyinchalik Nasaviy harafiddin va askarlari bilan birgalikda Qavzinga bordi u yerdan esa Alamutga ketdi¹¹.

XULOSA

Xorazmshohlar davrida elchilar davlat siyosatida muhim o‘rin tutgan shaxslar bo‘lgan. Elchi sifatida tayinlanganlar, odatda, yuqori martabali, bilimli, muloqotda mohir va hurmatli insonlar orasidan tanlangan. Ularning asosiy xususiyatlari – donishmandlik, diplomatik noziklik, so‘z boyligi va siyosiy vaziyatni to‘g‘ri baholay olish qobiliyatidir. Ayniqsa, diniy va ilmiy mavqega ega bo‘lgan shaxslarning elchi sifatida yuborilishi ular orqali nafaqat siyosiy, balki ma’naviy ta’sir o‘tkazishga bo‘lgan urinish sifatida baholanishi mumkin.

Elchilarning vazifalari faqatgina xat yetkazish yoki og‘zaki salom aytish bilan cheklanmagan. Ular ikki davlat o‘rtasidagi muzokaralarda muhim vositachi sifatida qatnashgan, sulton yoki xalifaning qarashlarini ifoda etgan, kerak bo‘lsa, siyosiy bosimlar yoki ittifoq takliflarini yetkazganlar. Bundan tashqari, ular harbiy tahdidlar, ittifoqlar yoki urushlarning oldini olishga qaratilgan strategik vazifalarni ham bajarganlar.

Manbalarda keltirilishicha, Xorazmshohlar elchilarni yuborish va qabul qilishda ularga yuksak darajadagi izzat-ikrom ko‘rsatgan. Ularni qarshi olish marosimlari, hadyalar, alohida mehmondo‘stlik va ular bilan olib borilgan muloqotlar elchilik institutining davlat siyosatidagi salmog‘ini yaqqol ko‘rsatadi. Ayniqsa, elchilarni kutib olishda yarim tizzada turish, ularning gapini tinglashda hurmat bajo keltirish kabi holatlar ularning mavqeini belgilovchi muhim ramzlar bo‘lgan.

¹¹Gulserin AZAR NASIRABADI. HARAZEMSAHLAR DONEMINDE DIPLOMASI VE ELÇILIK FAALIYETLERİ.-Baski Eylul 2021 s.193



Shu asosda aytish mumkinki, Xorazmshohlar davlati elchilarga nafaqat axborot tashuvchisi, balki diplomatik vakil va siyosiy strateg sifatida qaragan. Ularning shaxsiy fazilatlari esa davlat manfaatlarini himoya qilish va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida ko‘rilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mecdud Mansuroğlu, “Elci”, IA,IV, 231
2. Mehmet Ipsirli, “Elci”, DIA, XI,3
3. Gulserin AZAR NASIRABADI. HARAZEMSAHLAR DONEMINDE DIPLOMASI VE ELÇILIK FAALIYETLERİ. - Baski Eylul. 2021 -s. 191
4. Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent 2023. B 116